O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 30.428

Maqsuda S. XAJIYEVA
DSc, professor, Urganch davlat universiteti, Xorazm, O‘zbekiston
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com, ORCID: 0000-0002-9570-7767
Elmurod D.SULTONBOYEV,
Talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch, O‘zbekiston
E-mail: elmurodss@gmail.com

Dotsent Q.Olloyorov taqrizi asosida

YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARALI ISHTIROKINI KENGAYTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, ushbu huquqni ro‘yobga chiqaruvchi institutsional mexanizmlar hamda ularni takomillashtirish masalalari tahlil etilgan. Yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki faqat saylov jarayonlarida qatnashish bilan cheklanmasdan, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish, fuqarolik jamiyati institutlaridagi faoliyat, mahalliy boshqaruv va raqamli platformalar orqali qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatishni ham qamrab olishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, davlat boshqaruvi, jamiyat boshqaruvi, siyosiy ishtirok, huquqiy mexanizm, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, davlat xizmati, yoshlar siyosati, raqamli ishtirok.

КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАСШИРЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО УЧАСТИЯ МОЛОДЕЖИ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются конституционно-правовые основы обеспечения участия молодежи в управлении государством и обществом, институциональные механизмы реализации этого права, а также вопросы их совершенствования. Обосновано, что участие молодежи в государственном управлении не ограничивается лишь участием в избирательных процессах, но также охватывает общественный контроль над деятельностью государственных органов, обсуждение проектов нормативно-правовых актов, деятельность в институтах гражданского общества, местное самоуправление и влияние на процесс принятия решений посредством цифровых платформ.

Ключевые слова: молодежь, государственное управление, общественное управление, политическое участие, правовой механизм, гражданское общество, общественный контроль, государственная служба, молодежная политика, цифровое участие.

CONSTITUTIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR EXPANDING THE EFFECTIVE PARTICIPATION OF YOUTH IN PUBLIC ADMINISTRATION

Annotation

This article analyzes the constitutional and legal foundations for ensuring youth participation in the governance of the state and society, the institutional mechanisms for realizing this right, and issues related to their improvement. It is substantiated that the participation of youth in public administration is not limited solely to involvement in electoral processes, but also encompasses public control over the activities of state bodies, discussion of draft regulatory legal acts, activities in civil society institutions, local self-government, and influencing decision-making processes through digital platforms.

Keywords: youth, public administration, governance of society, political participation, legal mechanism, civil society, public control, public service, youth policy, digital participation.

Kirish. Zamonaviy demokratik davlatning barqarorligi fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qanchalik faol ishtirok etishi bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonda yoshlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar nafaqat jamiyatning demografik jihatdan faol qatlami, balki yangi g‘oyalar, innovatsion tashabbuslar va ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki masalasiga faqat ularni muayyan tadbirlarga jalb qilish yoki yoshlar tashkilotlari faoliyati doirasida qarash yetarli emas. Mazkur tushuncha yoshlarning davlat hokimiyati organlarini shakllantirish, davlat siyosatini ishlab chiqish, huquqiy hujjatlar muhokamasida qatnashish, davlat organlariga takliflar berish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda davlat xizmatiga kirish imkoniyatlariga ega bo‘lishini o‘z ichiga oladigan yaxlit huquqiy institut sifatida talqin qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. Ushbu ishtirok o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar, davlat organlarini demokratik shakllantirish va ular faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshirilishi belgilangan.[1] Mazkur norma yoshlar uchun ham davlat boshqaruvida qatnashishning fundamental konstitutsiyaviy kafolatini yaratadi.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 79-moddasida davlat yoshlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa huquqlari himoya qilinishini ta’minlashi hamda ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantirishi alohida belgilangan.[2] Bu holat yoshlarning

davlat boshqaruvidagi ishtirokini umumiy fuqarolik huquqidan tashqari, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur bo‘lgan maxsus konstitutsiyaviy yo‘nalish darajasiga ko‘targan.

Tadqiqot metodlari. Yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etish huquqini amalga oshirishda 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni muhim huquqiy asos hisoblanadi. Mazkur qonunda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi bevosita belgilangan.[3]

Ushbu qoida muhim huquqiy mazmunga ega. Chunki yoshlar davlat siyosatining faqat “obyekti”, ya’ni yordam va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj qatlam emas, balki tegishli siyosatni shakllantirishda ishtirok etuvchi subyekt sifatida e’tirof etiladi. Shuning uchun davlat organlarining yoshlar bilan munosabatlari bir tomonlama boshqaruv modelidan hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeliga o‘tishi zarur.

Amaldagi huquqiy mexanizmlarni mazmuniga ko‘ra bir necha yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchidan, vakillik demokratiyasi mexanizmlari mavjud. Bunda yoshlar saylov huquqidan foydalanish, vakillik organlariga nomzodlarni qo‘llab-quvvatlash, qonunda belgilangan yoshga yetgach deputatlikka saylanish orqali davlat hokimiyatining shakllanishiga ta’sir qiladi.

Ikkinchidan, bevosita ishtirok mexanizmlari muhim o‘rin tutadi. Jamoatchilik muhokamalari, ochiq muloqotlar, davlat organlariga murojaatlar, elektron platformalar orqali taklif kiritish yoshlarning qarorlar tayyorlash jarayonidagi bevosita ishtirokini kuchaytiradi.

Uchinchidan, jamoatchilik nazorati mexanizmi yoshlarning davlat boshqaruviga ta’sir ko‘rsatishida alohida ahamiyatga ega. Davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligi yoshlarning davlat boshqaruviga ishonchini shakllantiruvchi muhim omildir. Yoshlarning jamoatchilik kengashlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, volontyorlik tuzilmalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari orqali davlat organlari faoliyatini muhokama qilishi boshqaruv qarorlarining ijtimoiy samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchidan, davlat xizmatiga kirish mexanizmi yoshlarning boshqaruvdagi professional ishtirokining eng muhim shakllaridan biridir. Konstitutsiyaning 37-moddasi fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanligini belgilaydi.[4] Shu nuqtai nazardan, salohiyatli yoshlarning davlat boshqaruvi tizimiga ochiq tanlovlar, stajirovkalar va kadrlar zaxirasi orqali kirishi yoshlar siyosatining muhim amaliy yo‘nalishi bo‘lishi lozim.

Yoshlarning boshqaruvdagi ishtirokini baholashda faqat tashkil etilgan uchrashuvlar, forumlar yoki tadbirlar soniga asoslanish yetarli emas. Asosiy mezon – yoshlarning fikri yakuniy qaror mazmuniga qanchalik ta’sir ko‘rsatganidir.

Natijalar. Xalqaro tajribada ham yoshlar ishtiroki aynan qaror qabul qilish jarayoniga real ta’sir ko‘rsatish nuqtai nazaridan baholanadi. Yevropa Kengashining hujjatida yoshlarning faol ishtiroki faqat ovoz berish yoki saylovda nomzod sifatida qatnashishdan iborat emasligi, balki ularga qarorlarga ta’sir ko‘rsatish uchun huquq, vosita, makon, imkoniyat va zarur yordam mavjud bo‘lishini anglatishi ta’kidlanadi.[5]

Bu yondashuv O‘zbekistonda ham yoshlar ishtirokining mazmunini chuqurlashtirish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Masalan, yoshlar ishtirokida o‘tkazilgan jamoatchilik muhokamasidan keyin ularning qaysi takliflari qabul qilingani, qaysilari rad etilgani va rad etishning sababi ochiq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Shundagina maslahatlashuv jarayoni formal tadbirdan huquqiy natija beruvchi mexanizmga aylanishi mumkin.

Muhokama. OECD tadqiqotlarida ham yoshlarning davlat siyosatini ishlab chiqish jarayoniga tizimli jalb etilishi davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlashi qayd etiladi. Tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlarning siyosat ishlab chiqish bosqichlarida ishtiroki yuqori bo‘lgan sharoitlarda davlat xizmatlari va boshqaruv natijalaridan qoniqish darajasi ham yuqoriroq namoyon bo‘ladi.[6] Demak, yoshlar ishtiroki davlatning yoshlarga berayotgan imtiyozi emas, aksincha, davlat boshqaruvi sifatini oshiruvchi institutsional resursdir.

Bugungi sharoitda yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini raqamli texnologiyalardan ajratib bo‘lmaydi. Yoshlarning katta qismi davlat va jamiyatga oid fikrlarini ijtimoiy tarmoqlar, elektron murojaatlar, ochiq muhokamalar hamda boshqa raqamli kommunikatsiya vositalari orqali ifodalamoqda.

Biroq ijtimoiy tarmoqda bildirilgan fikr bilan huquqiy oqibat tug‘diradigan raqamli ishtirok o‘rtasida farq mavjud. Shu sababli istiqbolda yoshlar takliflarini davlat boshqaruvining tegishli darajasiga bevosita yetkazadigan, ularning ko‘rib chiqilish jarayonini kuzatish imkonini beradigan va yakuniy natija haqida muallifga javob qaytaradigan raqamli mexanizmlarni yanada rivojlantirish zarur.

United Nations Department of Economic and Social Affairs tomonidan tayyorlangan tadqiqotda raqamli texnologiyalar yoshlarning qarorlar qabul qilish va davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonidagi ishtirokini kengaytiruvchi muhim vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga, yoshlarning mavjud ishtirok imkoniyatlari haqidagi xabardorligi yetarli emasligi, axborot va ko‘nikmalar yetishmasligi hamda davlat institutlariga nisbatan ishonchning pasayishi ishtirokka to‘sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi.[7]

Shundan kelib chiqib, yoshlarning raqamli ishtirokini ta’minlashda “platforma yaratish”ning o‘zi yetarli emas. Uning huquqiy maqomi, davlat organlarining yoshlar takliflariga javob berish majburiyati, ko‘rib chiqish muddatlari va natijalarni e’lon qilish tartibi ham aniq belgilanishi kerak.

Fikrimizcha, yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kuchaytirish uchun bir qator huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Avvalo, davlat organlari huzuridagi yoshlar kengashlari faoliyatini faqat maslahat organi sifatida emas, muayyan qarorlar loyihalarini yoshlar manfaatlari nuqtai nazaridan ekspertizadan o‘tkazuvchi tuzilma sifatida rivojlantirish zarur. Yoshlar manfaatlariga bevosita daxldor davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini bunday kengashlar muhokamasidan o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

Ikkinchidan, “yoshlar ta’sirini baholash” mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Iqtisodiyot, bandlik, ta’lim, ekologiya, raqamlashtirish yoki hududlarni rivojlantirishga doir yirik qarorlar qabul qilinayotganda ushbu hujjatning yosh avlod manfaatlariga qisqa va uzoq muddatli ta’siri alohida baholanishi lozim.

Uchinchidan, mahalliy Kengashlar va ijro hokimiyati organlarida yoshlar bilan maslahatlashuvning doimiy mexanizmini shakllantirish kerak. Hududlardagi yoshlarning muammolari va ehtiyojlari bir xil emas. Shu bois yoshlar siyosatiga tegishli qarorlar hududlarning demografik, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, davlat boshqaruvi uchun yosh kadrlarni tayyorlashda huquqiy bilimning o‘zi bilan chegaralanmasdan, qaror qabul qilish, jamoatchilik bilan muloqot, raqamli boshqaruv, tahliliy fikrlash va huquqiy ekspertiza ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

Beshinchidan, yoshlarning takliflari bo‘yicha davlat organlarining “qayta aloqa majburiyati”ni kuchaytirish muhim. Yosh fuqaro yoki yoshlar tashkiloti tomonidan

berilgan asosli taklifning taqdiri noma’lum qolmasligi lozim. Taklif qabul qilingan yoki rad etilganidan qat’i nazar, uning natijasi huquqiy jihatdan tushunarli tarzda izohlanishi davlat va yoshlar o‘rtasidagi ishonchni oshiradi.

Xulosa. Yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash demokratik taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida buning uchun zarur bo‘lgan asosiy konstitutsiyaviy va qonunchilik poydevori yaratilgan. Endilikda muhim masala mavjud huquqlarning amaliy samaradorligini oshirish, yoshlarni davlat siyosatining passiv obyekti emas, balki qaror qabul qilish jarayonining to‘laqonli subyekti sifatida namoyon etadigan mexanizmlarni kuchaytirishdan iborat.

Yoshlarning davlat boshqaruvidagi haqiqiy ishtiroki ularning son jihatidan muayyan tuzilmalarda mavjudligi bilan emas, balki ularning tashabbus va takliflari davlat qarorlariga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi bilan o‘lchanishi lozim. Shu ma’noda, jamoatchilik muhokamalari, yoshlar kengashlari, davlat xizmati, raqamli ishtirok, jamoatchilik nazorati va “yoshlar ta’sirini baholash” kabi mexanizmlarning o‘zaro integratsiyasi O‘zbekistonda yoshlarning davlat boshqaruvidagi rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 36-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 79-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ–406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 4-modda // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 37-modda.
5. Council of Europe. Revised European Charter on the Participation of Young People in Local and Regional Life. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2003. – P. 7–8.
6. OECD. Governance for Youth, Trust and Intergenerational Justice: Fit for All Generations? OECD Public Governance Reviews. – Paris: OECD Publishing, 2020. – P. 62–101.
7. Park, Mi Kyoung. Promoting Youth Participation in Decision-Making and Public Service Delivery through Harnessing Digital Technologies. UN DESA Policy Brief No. 149. – New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs, 2023. – P. 2–4.